

BEZNIS MUHITIGA YARATILGAN IMKONIYATLARNING HUQUQIY ASOSLARI

Abdusalimov Ma'murjon To'ychi o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatining huquqiy maqomi mavjud O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nechog'lik tartibga solinganligi bilan bog'liq muhim va ishonchli normalar mavjudligi, ularning asosida qabul qilingan hamda birgalikda tadbirkorlar huquqlari kafolatlarining ustuvor mezoni sifatida xizmat qilayotgan qonun hujjalardagi ahamiyatga molik masalalarni tahlil qilib o'tamiz. Shuningdek, yurtimizda Konstitutsiyani o'zgartirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan, xususan, omma tomonidan tadbirkorlik faoliyatining huquqiy kafolatlarini takomillashtirish to'g'risidagi takliflar soni oshib bormoqda.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, xususiy mulk, tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiy faoliyat, mulkdor, davlat, fuqaro, yalpi ichki mahsulot.

Tadbirkorlik huquqi esa huquq tarmog'i sifatida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisidan iboratligi barchamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bobi jamiyatning iqtisodiy negizlari deb nomlanib, unda tadbirkorlik haqida ham so'z borgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga ko'ra, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilmashkil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlashini, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan

mahrum etilishi mumkinligi belgilab qo‘ygan. Bu tadbirkorlik faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari hisoblanib, ularning huquqlari himoya qilinishi lozimligini anglatadi. Bundan tashqari, bu norma O‘zbekiston Respublikasi hududidagi har bir fuqaroning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi va mulkdor bo‘lish huquqini kafolatlaydi. Professor O.T. Husanovning fikrlariga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat esa, ularning tengligi bir xilda muhofaza etilishini ta’minlaydi. Konstitutsiyada xususiy mulk hamda umumiyl boylik hisoblanuvchi davlat mulkining mavjudligi ko‘rsatilgan. Bozor iqtisodiyoti ma’lum prinsiplarga tayanadi. Bular mamlakat iqtisodoyoti bozor munosabatlariga asoslanishining konstitutsiyada mustahkamlanganligi, mulk shakllarining xilmaxilligi va ularning bab-baravar muhofaza etilishi; iste’molchi huquqining ustuvorligi, erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, xususiy mulkning daxlsizligi va davlat himoyasida bo‘lishi, mulkdan mahrum etish faqat qonunga asosan amalga oshirilishi hisoblanadi. Davlat ana shu prinsiplarni amalga oshirishni ta’minlaydi va jamiyat iqtisodiy negizlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash vazifasini bajaradi. Shunday qilib, jamiyatning iqtisodiy negizlari, bu – xilma-xil mulk shakllari (ommaviy, umumxalq va xususiy mulk) turli qonunga muvofiq tashkil qilinadigan iqtisodiy faoliyat, barcha mulklarni bab-baravar muhofaza qilish mexanizmlaridan iboratdir¹. Ushbu olimni fikrini tahlil qilsak, tadbirkorlik qilish erkinligini bozor iqtisodiyotini prinsiplaridan biri sifatida e’tirof etib, jamiyat iqtisodiy negizlarining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi darkorligini ta’kidlagan. Yuqorida konstitutsiyaviy norma O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g“risida”gi qonun bilan ham belgilangan bo‘lib, ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdagi, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Ushbu qonunning 3-moddasida tadbirkolik tushunchasi berilgan

¹ O.T. Husanov “Konstitutsiyaviy huquq”. Darslik. – Toshkent: “Adolat”, 2013. 202 b.

bo‘lib, unga ko‘ra tadbirkolik — tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir. Bu qonunda ham tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan kafolatlangan bo‘lib, 18 va 19-moddalarida tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitusiyaviy kafolatlari, ya’ni davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza qilishini kafolatlanishi, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi, tadbirkorlarga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsiligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan va ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug‘ullanishlari mumkinligi ko‘rsatilgan². Bulardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bunday konsitutsiyaviy kafolatlar tadbirkorlik faoliyatini tom ma’noda jadal rivojlanishiga, tadbirkorlarning huquqlari kafolatlanishiga, mamlakat iqtisodiyotining gullab-yashnashiga, ichki va tashqi iqtisodiy bozor kengayishiga, yalpi ichki mahsulot ortishiga xizmat qilib kelmoqda. Biroq, rivojlangan davlatlar konstitusiyasi, xususan, AQSh konstitutsiyasiga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, korporatsiyalar foyda olishga intilish huquqiga ega. Xodimlarning burchi rentabellikni oshirish uchun o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishdan iboratdir. Korporatsiya faqat foyda ko‘rish uchun o‘z xodimlarining yoki jamiyatning huquqlarini buzolmaydi. Masalan, kompaniya xodimlarga eng kam ish haqidan kamroq maosh to‘lay olmaydi yoki daromadni oshirish uchun ularni xavfli soatlarda ishlashga majburlay olmaydi. Kompaniyalar boshqa kompaniya manfaatdor tomonlari, jismoniy shaxslar yoki jamiyat huquqlarini buzadigan poraxo‘rlik, sifatsiz xizmat yoki soxta reklama kabi g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirmasligi lozim. Shuningdek, tadbirkorlik

² http://minjustuz.ru/uz/gcontent.scm_groupId=4140§ionId=4262&contentId=7530.htm

faoliyatining asosiy maqsadlari orasida jamiyatga qaytishning muhimligi, bu rol ijtimoiy mas'uliyat sifatida tanilgan. Korxonalar ma'lum bir jamiyat a'zolari oldida axloqiy majburiyatlarga ega. Biznes etikasi qoidasi jamiyat a'zolari va tashkil etilgan korxonalar o'rtaida o'zaro kelishuvni ta'minlaydi. Jamiyat a'zolariga jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladigan imtiyozlardan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat beradi. Bu imtiyozlarga iqtisodiy samaradorlik, takomillashtirilgan qarorlar qabul qilish hamda zamonaviy texnologiya va resurslarni egallash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish kiradi. Ushbu ijtimoiy ruxsat huquqiy tan olish va ijtimoiy tabiiy va inson resurslaridan foydalanish uchun ruxsat olish bilan tenglashtiriladi. Lekin, bularning barchasi belgilangan qonunlar doirasida amalga oshirilishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar soliq va yig'imlarni o'z vaqtida to'lashi lozimligi, ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhit qoidalariga rioya etishi, mehnat qonunchiligidagi rioya etishi, cheklovchi savdo amaliyotlaridan hamda korrupsiyadan saqlanishi lozimligi belgilab qo'yilgan³. Mamlakatimizda Konstitutsiyani isloh qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar hamda takliflar orasida zikr qilib yuritayotgan mavzumizga ham alohida urg'u berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashdi. Davlat rahbari yangi Konstitutsiya loyihasini qabul qilish uchun referendum o'tkazilishini e'lon qildi. Uchrashuvda prezident asosiy qonunga qator normalarni kiritish bo'yicha ilgari surgan takliflari orasida tadbirkorlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga, cheklanmagan miqdorda daromad olishga haqliligi, davlat xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhit hamda sharoitlarni ta'minlashi, erkin va halol raqobatni himoya qilishi, iqtisodiy faoliyatda monopollashtirishga yo'l qo'yimasligini kafolatlashi lozimligi kabilari mavjud⁴. Bu tadbirkorlar uchun yanada yangi va keng imkoniyatlarga yo'l ochishi bilan bir qatorda

³ [https://www.upcounsel.com/business-constitutional rights#:~:20for%20sim](https://www.upcounsel.com/business-constitutional-rights#:~:20for%20sim)

⁴ <https://kun.uz/73615385>

уларни qонуниylashtirilgan faoliyat prinsipi asosida faoliyat yuritishini konstitutsiyaviy-huquqiy muhofazasini ham ta'minlaydi desak ta'bir joiz bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytadigan bo'lsak, tadbirkorlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanib, undan daromad olishga haqli bo'lishi shartligi konstitutsiyaviy islohotlarning bosh bo'g'inlaridan biriga aylanashi kerak. Shuningdek, davlat qanchalik tadbirkorlarga kengroq huquq va imkoniyatlar yaratishi, ularda shunchalik majburiyatlar ko'lmini hamda qaysi bir qonunchlikda belgilangan faoliyat turi bo'lmasin ushbu faoliyatda ma'suliyat hissini oshirishi bilan ham izohlanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy mustaqillik - Yangi O'zbekistonning mustahkam asosidir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5484>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldag'i PF-21-soni "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatçiliginini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-si qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-si qarori.
6. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (02.05.2012y. O'RQ-328-si).
7. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (24.09.2012y.)
8. "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (05.04.2019y.).